



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 1-iyul, № 130 (8753)

Dushanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON YOSHLARIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrlı o'g'il-qizlarim!

Siz, azizlarni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' ayyom — Yoshlar kuni bilan chin qalbmndan samimiy muborakbod etaman.

Biz o'z oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimiz ijobatini, Yangi O'zbekiston kelajagini butun el-yurtimiz qatori sizdek azmu shijoatli farzandlarimiz bilan bog'liq holda ko'ramiz. Shu bois yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni kamol topirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmog'da.

Bu haqda so'z yuritganda, so'nggi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha dunyoda o'xshashi kam bo'lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratilganini ta'kidlash lozim. Bu esa mahallalardagi Prezident vakillari bo'lgan yoshlar yetakchilari orqali qancha-qancha yigit-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandlegini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ko'plab masalalarni quyi bo'g'inining o'zida hal etish imkonini bermog'da.

Ayniqsa, "Yoshlar daftari", "Yoshlar balansi" platformasi asosida olib borayotgan keng ko'lami ishlarimiz natijasini o'g'il-qizlarimiz o'z hayotida aniq his etmog'da.

Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish bo'yicha joriy etilgan yangi tizim tufayli bu yilning o'zida "mahalla yettilligi" tavsiyasi bilan 156 ming yoshga 60 ming gektar yer maydoni 30 yil muddatga ijaraga berilgani ham shu yo'ldagi muhim qadamdir.

Albatta, yoshlarning mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarda muhim yutuqlarga erishayotgani barchamizni xursand qiladi. Birgina o'tgan o'quv yilida maktab o'quvchilarimizdan 55 nafari matematika, kimyo, biologiya, fizika va informatika fanlari bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiadalarda 8 ta oltin, 15 ta kumush, 32 ta bronza medalni, madaniyat va san'at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda esa yoshlarimizning 383 nafari bosh sovrinni, 1 ming 359 nafari 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yaqinda Qatarda bo'lib o'tgan futbol bo'yicha Osiyo kubogi o'yinlarida O'zbekiston olimpiya terma jamoasi mamlakatimiz tarixida ilk bor Olimpiada yo'llanmasini qo'lga kiritgani ham barchamizga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Mana, bizning qanday iste'dodli, bilimli va matonatli yoshlarimiz bor! "Yangi O'zbekiston yoshlari" degan sharaflı

nomga har tomonlama munosib bo'lgan bunday yigit-qizlar bizning bebaho boyligimiz, oltin fondimizdir.

Qadrlı navqiron do'stlarim!

O'zbekistonda yoshlar siyosati borasida olib borilayotgan keng ko'lami ishlar dunyo miqyosida tan olinmog'da. O'tgan yili Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko'ra O'zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, deb e'tirof etilgani ham shundan dalolat beradi. Shuningdek, BMT tomonidan "Yoshlar strategiyasi — 2030"ni namunaviy tarzda amalga oshirish bo'yicha tanlab olingan 10 ta mamlakatdan biri aynan O'zbekistondir. 2022-yilda Buxoro shahri — Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, 2024-yilda esa azim Toshkentimiz — Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti deb e'lon qilindi.

Shu kunlarda mamlakatimizda ilk bor o'tkazilayotgan Butunjahon yoshlar festivali ham O'zbekistonga bo'lgan yuksak e'tibor namunasi, desak, to'g'ri bo'ladi. Ushbu anjumanda 92 ta mamlakatdan 700 nafardan ziyod chet ellik yoshlar, 20 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning vazirlik va idoralardan rahbar va mas'ul xodimlar ishtirok etmog'da. Eng muhimi, yurtimiz yoshlarining butun dunyoda do'stlari, hamkorlari ko'paymog'da, bilim va kasb o'rganish, global muloqot va almashuvlarda ishtirok etish imkoniyatlari kengaymog'da.

Aziz o'g'il-qizlarim!

Farzandlari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli albatta yorug' bo'ladi. Biz O'zbekiston yoshlarini ana shunday ezgu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalash uchun bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Hech qachon unutmang, sizlar yoshlikning har bir daqiqasini g'animat bilib, doimo bunyodkorlik va ijodkorlik hissi bilan, Vatanga cheksiz mehr va sadoqat tuyg'usi bilan yashasangiz albatta kam bo'lmaysiz.

Sizlarni bugungi bayram bilan yana bir bor tabriklab, o'z oldingizga qo'ygan maqsadlarga erishishda barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, omad va zafarlar tilayman.

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz o'g'il-qizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

BMT BOSH KOTIBI O'ZBEKISTONGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish 30-iyun kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent xalqaro aeroportida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishni O'zbekiston Bosh vaziri va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Toshkent shahriga kelgach, O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri hamrohligida "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyrdi.

BMT Bosh kotibi "Yangi O'zbekiston" bog'idagi Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida BMT delegatsiyasi vakillariga mazkur ansambl mazmuni va me'moriy yechimlari haqida ma'lumot berildi.

Bu majmua 2021-yilda, istiqbolimizning o'ttiz yilligiga bag'ishlab bunyod etilgan edi. Unda mamlakatimizning qadimgi tarixidan boshlab to bugungi kungacha bo'lgan eng muhim voqealar, buyuk alloma va jahongir bobolarimizning siymolari aks ettirilgan. Monumentning eng yuqori qismida Humo qushi tasvirlangan.

Delegatsiya a'zolari majmuada aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jadid



bobolarimizning siymolariga alohida e'tibor qaratdi.

Shundan so'ng BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish poytaxtimizdagi Hazratii Imom majmuasida bo'ldi.

Oliy martabali mehmonga bu yerdagi masjid va maqbaralarning bunyod etilishi, majmuada saqlanayotgan Usmon Mus'hafi,

uning yurtimizga keltirilish tarixi haqida ma'lumot berildi.

O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan ishlar, e'tiqod erkligi, diniy amallarni ado etish uchun yaratilgan sharoitlar xususida so'z bordi.

Mamlakatimizda ilm ahli-niing boy merosini chuqur o'rganish, tarixiy obidalarini

asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratilmog'da.

Shu hududda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi poydevoriga tamal toshi qo'ygan edi. Ushbu mahobati va mohiyati jihatidan ulkan markazning qurilishi, pardoqlash ishlari izchil

davom etmog'da. Mehmonlarga uch qavatli majmua qadimiy obidalarimiz shaklida barpo etilgani haqida ma'lumot berildi. Bino markazida ulkan gumbaz, to'rt tomonida simmetrik peshtoqlar qurilgani aytiladi.

Bu kabi ezgu tashabbuslar xalqimiz va xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgani qayd etildi.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish tarixiy obidalardan hayratga tushganini ta'kidladi. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilayotganini yuqori baholadi.

1-iyul kuni Toshkent shahrida oliy darajadagi muzokaralar o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Kun tartibidan O'zbekistonning BMT va uning institutlari bilan ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari, shuningdek, global siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb jihatlari o'rın olgan. Mamlakatimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Z. JONIBEKOV,
I. AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.

O'ZA surati.

SHIJOAT, INTILISH VA ORZULAR RO'YOBİ

MAMLAKATIMIZDA KENG NISHONLANGAN YOSHLAR KUNI ANA SHUNDAY IFODALARNI O'ZIDA MUJASSAM ETDI

Bugun yurtimizning barcha go'shalari, bog'u ko'chalari shijoatli, intiluvchan va orzulari mo'li yoshlarimizning sho'x-shodon kulgilari, do'stona muloqoti, quvonchu baxtiyorliklari bilan bezaldi.

Shukuh

Sanaga bag'ishlangan asosiy tantana poytaxtimizdagi "Humo Arena" majmuasida bo'lib o'tdi. Ulkan zal bayramona bezatilgan, yoshlar dilida iftixor, bugungi ajoyib zamonadan zavqlanish tuyg'usi jo'sh urgan, qo'llarida yurtimiz bayroqlari, egnida esa "Yangi O'zbekiston yoshlari, keling birlashaylik!" shiori yozilgan futbolbalkar... Bir so'z

bilan aytganda, yoshlarimiz bayram og'ushida.

Tadbir avvalida davlatimiz madhiyasi yangradi, navqiron avlod vakillari qo'llarini ko'ksiga qo'yib, uni jo' bo'lib kuyaldi.

Tadbirda davlatimiz rahbarining so'nggi bir yil ichida yoshlar bilan uchrashuvlari, muloqotlari, musobaqalardagi ishtiroki, qutlovlari aks etgan "Prezident va yoshlar" nomli videorolik namoyish etildi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning yurtimiz yoshlariga bayram tabrigini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamentining rahbari Odil Abdurahmonov o'qib berdi.

Tadbirda mamlakatimizda yoshlar masalasi hamisha dolzarbligi, yigit-qizlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar kengligi, shunga munosib ravishda barkamol avlod vakillari ham marrani baland olib oldinga intilayotgani haqida so'z yuritildi.

O'zbekiston — BMT:

DAVLATLAR VA XALQLAR MANFAATI YO'LIDA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIKKA SODIQLIK

Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish 30-iyun — 1-iyul kunlari rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'lib turibdi. Bu uning BMT rahbari sifatida mamlakatimizga ikkinchi tashrifidir.

Biz va jahon

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish 2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahrida Bosh Assambleya 78-sessiyasi doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan o'tkazgan uchrashuvda BMT va uning barcha institutlari "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amaliy ro'yobga chiqarishda ko'maklashishga tayyor ekanini ma'lum qilgan edi. Ushbu bayonot davlatimizni modernizatsiya va demokratlashtirish yo'lidagi islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotgani va qo'llab-quvvatlanayotgani, shuningdek, mazkur jabhada olib borilayotgan yangilanishlar samarasidan dalolatidir.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi paytlarda O'zbekiston BMT faoliyatida faol qatnashmog'da. Xususan, joriy yilning o'zida nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo uchun birinchi marta mamlakatimiz vakili BMTning muhim va nufuzli organi — Inson huquqlari qo'mitasiga 2025 — 2028-yillar uchun saylandi. Shuningdek, O'zbekiston 2025 — 2027-yillarga mo'ljallangan BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi hamda Xalqaro mehnat tashkilotining Ma'muriy kengashi a'zosi bo'ldi.

Ushbu muhim voqealar O'zbekiston erishayotgan yutuqlarining yorqin dalili, barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sishga erishish yo'lidagi izchil sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlabgina qolmay, balki mamlakatning inson huquqlarini kengaytirish borasidagi prinsipial pozitsiyasi dunyoda keng e'tirof etilganini isbotlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan Bosh Assambleyaning 72-sessiyasi umumiy muhokamalaridagi ishtiroki mamlakatimiz bilan BMT o'rtasidagi samarali va o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'shandan buyon O'zbekiston rahbari BMT minbaridan deyarli har yili global va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari bo'yicha muhim xalqaro tashabbuslarni ilgari surmog'da va ular keyingi yillarda muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti.

INSONNI QADRLASH, ODAMLARNI HAYOTDAN ROZI QILISH — BOSH MAQSAD

"Xalq so'zi" gazetasi 22-may sonida chop etilgan siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning "Shavkat Mirziyoyev: men umrimni shu xalqqa tikkanman!" sarlavhali maqolasini o'qib, buyuk Konfutsiyning "Har bir rahbar o'z zimmasidagi vazifani mas'uliyat bilan halol ado etmog'i lozim. O'shanda atrofdagilar undan o'rnak oladi. Rahbarga mutanosib hamma o'z ishi, mashg'uloti bilan shug'ullana boshlaydi", degan so'zlari yodimizga tushadi. Va mamlakatimiz tinchligi, el-yurt farovonligi, Vatan taraqqiyoti yo'lida butun borlig'ini bag'ishlab, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishni hayotining ma'no-mazmuni deb biluvchi buyuk islohotchi rahnamoligida so'nggi yetti-sakkiz yilda amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar, ilgari surilgan konstruktiv yechim va takliflar, yuksak g'amxo'rlik, insonlar hayotiga jonkuyarlik ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Hamyurtlarimizning jamoatchilik orasida katta aks sado bergan ushbu maqoladan olgan taassurotlari, mamlakatimizdagi o'zgarishlar haqidagi mulohazalari e'tiboringizga havola etilmog'da.

2 va 3-sahifalarga qarang.

4

Qayta tug'ilgan Mo'ynoq

Bundan olti-yetti yil oldin Orolbo'yiga qadami yetgan kishi borki, osmonni g'ubor qoplagan, poyonsiz qumliklar aro yantog'u saksovullar qovjirab, goh ko'kka o'rlagancha ho'lu quruqni uchirib o'ynaydigan quyunlardan qaltirab turgan, bir imdodsiz, rutubatli manzaraga duch kelardi.

Asli qo'ng'irotkiman, Mo'ynoqqa 2017-yilning dekabrda kelin bo'lib tushganman. To'y kuni bobom: "Mo'ynoq hosiyatli yer. To'g'ri, dengiz chekingan, olis hudud, markazdan uzoqda. Ammo bu yerga Prezidentning nazari tushgan. Podshoning nazari tushgan zamin Yaratganing mahramati ila obod bo'ladi, degan gap bor. Ikki yosh baxtli bo'lsin!" deya oq fотиha bergandi.

Va nazdimda 2017-yildan yangi Mo'ynoq buniyod etila boshlagandek, go'yo. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining yuksak minbardan turib, "Orol fojiasidan eng ko'p zarar ko'rgan – Mo'ynoq xalqi. Ularning sabrmatonati, vatanparvarligi va mehnatsevarligi uchun rahmat aytishimiz, shunga munosib xizmat qilishimiz kerak", degan so'zlari mo'ynoqliklarning ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirish bilan birga amaliy ishlarda ham o'z aksini topa boshladi.

Davlatimiz rahbari 2017-yilning 20-21-yanvar kunlari Qoraqalpog'istonga tashrifi chog'ida Qo'ng'iro't – Mo'ynoq ichimlik suvi tarmog'i qurilishining boshlanishi bilan tanishdi. Oradan qisqa muddat o'tib 101 kilometrlik suv tarmog'i ishga tushirildi va 25 mingdan ortiq aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash imkonini yaratildi.

Odatda biron hududni rivojlantirishga oid alohida qarorlar kam chiqariladi. Lekin 2017-yil 28-fevral kuni "Qoraqalpog'iston Respublikasi

Mo'ynoq tumanini 2017-2018-yillarda iqtisodiy rivojlantirish va bandlekni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarorining qabul qilinishi hudud aholisi hayotida tarixiy voqea bo'ldi.

Mazkur qarorga asosan tumanda 2017-2018-yillarda sanoat, xizmat ko'rsatish, servis va turizm, qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlarida jami 72 ta loyiha amalga oshirildi va natijada 1 343 ta yangi ish o'ri yaratilishiga erishildi. Shuningdek, sobiq "Mo'ynoq baliq konserva kombinati" qayta ishga tushirildi.

Orolbo'yining boshqa hududlarida bo'lmagan "Oq kema" bolalar dam olish markazi, shuningdek, Madaniyat saroyi, Yoshlar saroyi, Amfiteatr, Mo'ynoqning yangilangan aeroporti, "Future Muynak" o'quv-amaliyot markazi va boshqa ko'plab imoratlar qurildi. Hozirda eng ko'p sayyohlarni jalb qilayotgan uchay osmon ostidagi "Kemalar qabristoni" muzeyi yonida Orol muzeyi qurildi va yaxlit majmuaga aylantirildi. Ayniqsa, hududda qum to'zonlari ko'tarilishini kamaytirish maqsadida Orol dengizining qurigan tubida saksoval va cho'lga chidamli boshqa o'simliklarni ekish, hududda yashil qoplamalarni barpo etish borasida qilingan ishlarni dunyo tan oldi. Bu ishlarining samarasini bugun nafaqat mo'ynoqliklar, balki mintaq xalqlari ham sezmoqda.

Maqolada ko'plab soha va tarmoqlardagi oldingi hamda hozirgi davr taqqoslangan. Shular orasida tibbiyot xodimlarining oylik maoshi 3,1 barobar ko'tarilgani haqida o'qib, tumanimizda ushbu soha xodimlarining oylik maoshi undan-da ko'proqqa oshirilganini e'tirof etgim keladi.

"Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoniga muvofiq 2022-yil 1-iyuldan boshlab viloyatlar hamda Toshkent shahridan, shuningdek, xorijiy davlatlardan Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtakopir, Chimboy, Qorao'zak, Bo'zatov, Shumanay, Qo'ng'iro't tumanlariga borib ishlovchi shifokorlarning oylik lavozim maoshiga dastlabki uch yil davomida 100 foiz, Mo'ynoq tumanida esa 200 foiz miqdorida qo'shimcha har oylik ustama to'lovlari Davlat budjeti mablag'lari hisobidan to'lanishi belgilandi.

Buni qarangki, mana shu hujjat asosida dastlab qo'shimcha ustama oylik maoshi uchun viloyatlardan kelgan shifokorlarning ko'pchiligi hozirda mahalliy aholi bilan qadrdon bo'lib, elga singishib, mo'ynoqlik bo'lib ketishdi. Kasbim taqozosi bilan ular bilan tez-tez suhbatlashib turaman.

Ilgari, televizorda Mo'ynoqni ko'rsatishganida jamiyatdan uzilib qolgan, Orol inqirozidan aziyat chekkan aholini, ayniqsa, bolalarni kasalmand holatda ko'rib, nahotki tug'ilajak farzandlarim ham shunday bo'lsa, bu yerda tibbiy xizmat rivojlanmasa, degan qo'rquv bor edi. Shukrki, yuqorida keltirganimdek, eng olis Mo'ynoqda



ham sifatli tibbiy xizmat va shifokorlarga munosib sharoitlar yaratildi. Hozirda ikki nafar farzandim bor va ular sog'lom kamolga yetyapti.

Xullas, kechagi va bugungi Mo'ynoqni taqqoslaydigan bo'lsam, 7 yil oldin Qo'ng'iro'tga borish uchun bir kun oldin harakatimizni qilgan bo'lsak, hozir uyimiz oldiga kelib kutib turadigan taksi xizmatlari mavjud. Ayniqsa, Nukus – Mo'ynoq yo'nalishida aviaqatnov yo'lga qo'yilgani e'tiborga molik.

Mo'ynoqdagi ulkan o'zgarishlarni bir maqolaga sig'dirish imkonsiz. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, "Agar kimdir bizning islohotlarimizga shubha qiladigan bo'lsa, Mo'ynoqqa kelib ko'rsin". Bunga qo'shimcha qilib, bunday imkoniyatga ega bo'lmaganlar "Yangi Mo'ynoq" kitob-albomidan ham ko'rib olishi mumkin, degan bo'lardim. Chunki o'sha kitobda ham aynan Prezidentimizning birgina hududga qaratgan e'tibori samaralari o'z aksini topgan.

Darig'a ABLAYEVA,
jurnalist.

INSONNI QADRLASH, ROZI QILISH –

Bugungi poydevor mustahkam

Kechagi kunni xotirlashning o'zi og'ir, shunday bo'lsa-da, unutib ham bo'lmaydi. Yashirib nima qildik, maktabgacha ta'limga bo'lgan e'tibor shu qadar sust ediki, natijada xalqimizda bolalar bog'chasiga bo'lgan ishonch yo'qoldi. Aksariyat ota-onalar ilojisizlikdan farzandlarini qoldirib ketar, biz esa ularga qarab turuvchi enagalarga aylanib qolgandik.



Vaholanki, "maktabgacha ta'lim" so'zining o'ziyoq uning nechog'li muhim maskan ekanidan dalolat. Davlatimiz rahbari masalaning shu jihatiga katta e'tibor qaratdi. Ta'lim aynan bog'chada shakllanmas ekan, keyingi bosqichda uni izga solish murakkablashadi. Shu bois bu yo'nalishda salmoqli o'zgarishlar

qilishga kirishildi. Foydalanishga yaroqsiz binolar yangilana boshlandi. Jumladan, bizning 4-maktabgacha ta'lim tashkilotimiz ham 2018-yili yangidan qurildi. Unga qadar sharoiti haminqadar eski binoda faoliyat yuritib kelayotgandik.

Prezidentimiz bolalarni bog'chaga qamrab olish darajasini keskin oshirish zarurligi yuzasidan ko'rsatmalar bergani bejiz emas. Boisi navqiron avlodga ta'lim-tarbiya berishda ularni to'g'ri yo'naltirish juda muhim. Bu borada "Ilk qadam" davlat dasturi asosida ish olib bormoqdamiz. 180 nafar tarbiyalanuvchimiz orasida sport va musiqa yo'nalishlarida viloyat miqyosidagi tanlovlarda g'olib bo'lganlar bor.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yetarli sharoit barpo etilgach kadrlar masalasi ham kunning asosiy mavzusiga aylandi. Zero, tarbiyachi biliml bo'lsagina bolalar zukko bo'lib kamol topadi. Shuning uchun 40 nafar xodimimizning barchasini oliy ma'lumotli qilish harakatidamiz. Hozirda 4 nafar tarbiyachimiz oliygohlarda tahsil olaypti.

So'nggi 5-6 yilda yurtimizda barcha sohada misli ko'rilmagani yangiliklar bo'ldi. Xususan, ta'lim tizimiga e'tibor ko'lam o'rti. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha tub islohotlar amalga oshirildiki, qisqa muddatda erishilgan natijalarni ko'rib, davlatimiz rahbari nechog'li uzoqni ko'ra bilganiga yana bir bor amin bo'lasiz.

Maftunaxon TESHABOYEVA,
Andijon shahridagi 4-maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari.



Chinakam tadbirkorlar sinfi shakllandi

Barcha islohotlarning mag'zini tashkil etgan "Inson qadri uchun" degan tamoyil xalqimiz hayoti, turmush darajasi sifatining izchil o'sib borayotganida o'z samarasini ko'rsatyapti.

Kamina ham mulkdor – ishbiarmonlik harakatiga qo'shilib, o'zimizning fabrikamni tashkil qildim. Ikki qavatli zamonaviy binoda joylashgan korxonamizda ishlab chiqarilayotgan yuzdan ortiq turdagi trikotaj mahsulotlarining sifati unga nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham talab katta ekanini ko'rib, eski zamonda savdo sohasida ishlagan davr, do'kondan oddiy kiyim-kechak topish ham amirahol bo'lgan kunlar yodimga tushadi.

Katta yoshdagilar yaxshi biladi, u paytlar kiyimlarning sarasi chetdan keltiril, ular ham "otliqqa"gina topilardi. Endi-chi? Bozordagi biri-biridan bejirim mollarning yorlig'iga qarasangiz, asosiy qismi o'zimizda ishlab chiqarilgan, matosiying pishiqiligi, tikilishi, dizayni xorijnikidan ustun bo'lsa borki, kam emas.

O'zbek tadbirkori bugun dunyo bilan barobar qadam tashlayapti. Yaqinda savdo hamkorlarimiz taklifi bilan Rossiya

Federatsiyasiga borib, ishbiarmonlar davrasida bo'ldik. Yurtimizdagi o'sish-o'zgarishlar, iqtisodiyotimizning rivoji, tadbirkorlik sohasi uchun yaratilgan shart-sharoitlarga ularning havasi baland. Muhimi, bizga ishonchli hamkor sifatida qarashadi. "Opa, mahsulotlarigizni faqat bizga yuboring", deydi ko'pchiligi. Shunday paytda dunyo bozorida O'zbekistonning o'rni, mavqei tobora ortib borayotganidan o'zgacha faxr tuyaman.

Mahsulotning asosiy qismini eksportga chiqaramiz, ular tashqi bozorda "Uz Nam Tex" savdo belgisi ostida sotiladi. Hozirga kelib yiliga 15 mln. AQSH dollaridan ko'proq miqdorda tashqi savdo amaliyotini bajaryapmiz.

Bu – endilikda real natijadorlik kasb etib, islohotlar drayveriga aylangan tadbirkorlik harakati imkoniyatlaridan bahramand bo'lgan oddiy bir ishbiarmon ayolning erishgani. Men



singari o'z mehnati, intilishi bilan mulkdor maqomiga sazovor bo'lgan hamyurtlarimiz safi esa yanada keng.

Ma'suda SODIQOVA,
To'raqo'rg'on tumanidagi "Dilrabo SDA" ko'p tarmoqli savdo-ishlab chiqarish korxonasi rahbari,
"Do'stlik" ordeni sohibasi.

Ijtimoiy himoya — e'tibor markazida

"Shavkat Mirziyoyev: men umrimni shu xalqqa tikanman!" sarlavhali maqolada yurtimizda yuz bergan va berayotgan yangilanishlar, o'zgarishlar atroflicha o'z ifodasini topgan. Amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari to'g'risida xolis fikr-mulohaza yuritilgan.

Shu bois ham bu tahliliy maqola ko'pchilik tomonidan e'tirof etilayotir. Uni jamoamiz ham o'qib-o'rgandi. Har bir ishchi-xodim shu jarayonda o'z faoliyati yuzasidan tegishli xulosalar qildi.

Maqolada ko'plab sohalar qatori ijtimoiy himoya masalasiga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Chunonchi, muallif Jizzaxdagi mahallalardan birida yashayotgan ayol hayoti misolida umidsizlik

botqo'g'iga tushib qolgan kishining qanday qilib kambag'allikdan qutulib farovon turmush kechirayotgani haqida so'z yuritadi. Bunday misollarni esa yurtimizning istalgan qo'shasidan keltirish mumkin. Zero, xalqimizda "Hayt degan tuyaga madad" qabilida gap bor. Ehtiyojmandlarga madad qo'lini cho'zish, ular o'y-tashvishini yengillashtirish azal-azaldan milliy qadriyatlarimizning ajralmas bo'lari sanaladi.

Viloyatimizda har haftaning jumi "Mehr va saxovat kuni" sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan joriy yilning o'tgan davri mobaynida hududlarda 400 ga yaqin turli darajadagi tadbirlar, xayriya aksiyalari tashkil etildi. Ularga 6 ming 209 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxs jalb qilindi. Jami 976,2 mln. so'mlik yordamlar ko'rsatildi.

Tadbirlar doirasida ijtimoiy himoyaga muhtoj salkam 3 mingta ehtiyojmand oila holidan xabar olinib, ularning yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar amalga oshirildi.

Bu kabi dalillar, maqolada ta'kidlanganidek, ijtimoiy himoya masalasiga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Umidjon UMAROV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
Buxoro viloyati boshqarmasi boshlig'i.



Iqtisodiyotimiz Renessansining tongi

Faoliyatimizni roppa-rosa o'ttiz yil muqaddam otamning mashinasini sotib, puliga shlakoblok ishlab chiqaradigan uskunalar olish bilan boshlaganmiz. Olti kishi o'tobning tig'ida ishlab, mahsulotimizga arang xaridor topardik. Sababi o'sha kezlar na odamlar, na davlatda qurilishlarga mablag' topilar, inchinin, daromad buromadimiz ham shunga yarasha edi. Tabiiyki, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi loyihalarni tatbiq etishga qo'limiz kaltalik qilardi. To'g'ri, 1998-yilda kredit olish niyatida bir sug'urta agentligiga hujjat taqdim etgan edik, ammo rad qilishdi.



Qurilishlar ko'lamini ortib, ishlarimiz biroz yurishgach, ohak va polizol ishlab chiqarish sexlarini yo'lga qo'ydik. Biznesimiz yurishganday bo'ldi. Lekin xorijga mahsulot chiqarish, valyuta tushumini erkin tasarruf etish, konvertatsiya masalasi, chetdan xomashyo va uskunalarni keltirish ming bir azob edi. Misol uchun, qancha-qancha idoraning eshigini taqillatib, bankdan kredit olgan taqdirda ham uni konvertatsiya qilish uchun yana shuncha qabulkonalarda sarg'ayardik. Bir safar 200 million so'm (o'sha kezlar katta mablag' edi) kredit olib, konvertatsiyaga hujjat tayyorladik,

oradan bir yarim yil o'tib rad javobini olganmiz.

"Xalq so'zi" gazetasi chiqqan "Shavkat Mirziyoyev: men umrimni shu xalqqa tikkanman!" maqolasi sabab bugun o'ylab qaragam, men bilan tadbirkorlikka qo'l urganlarning o'n foizi ham sohada qolmabdi. Qolganlarning ham yarmidan ko'pi sudlangan yoki tergov azobini tortgan. Boshqacharoq ta'riflasam, biznesimiz o'sha kezlar dorbozni eslatardi. Harakat qilaversan, lekin oyog'ing qaltiraydi...

To'g'ri, biznesda ishlar doimiy barqarorligi hech qachon kafolatlanmagan. Lekin uning ravnaqi uchun ko'mak o'rniga turli g'ovlar qo'yilishi na iqtisodiyotga, na tadbirkorga naf beradi. Qolaversa, o'ta qat'iy tashqi va ichki raqobat muhiti, texnologik yangilanishlar, dunyodagi globalashuv jarayonlarining shiddati har doim tadbirkor oldiga o'z shartlarini qo'yib turadi. Bu har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun ham beshafqat sinov. Shu jihatdan Prezidentimizning biz, tadbirkorlar

bilan muloqoti, ilgari surgan g'oyalari, ishbilanmonlik muhitini ravnaq toptirish yo'lida taqdim etgan yengilliklarini milliy iqtisodiyot Renessansining tongigiga qiyoslasak, mubolag'a bo'lmaydi. Aytgich, qaysi mamlakat rahbari har yili tadbirkorlar bilan uchrashib, ularni qiynayotgan muammolarni tinglayapti?! Aynan shunday muloqotlardan birida Prezident mamlakatimizda qo'shimcha qiymat solig'ini yigirma foizdan o'n ikki foizga tushirish g'oyasini ilgari surganida butun zal olqish bilan oyogga turdi. Bundan tashqari, qator to'siq va sarsongarchiliklar olib tashlanganini aytmaymizmi?

Birgina misol. Hududning biznes muhitida ko'zga ko'ringan tadbirkor sifatida deyarli kunora sayyor qabullarga taklif etilaman. Vaholanki, yaqin-yaqinlarda ham hatto hokimning qabulkonasiga yo'lga olmas, yordamchilaridan "Vaqt topib o'zi chaqirarkan", degan javobni olardik.

2018-yildan metallurgiya va mashinasozlik yo'nalishida import

o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Keyingi bosqich – 2022-yildan korxona faoliyatini yanada kengaytirdik. Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan 150 dan ortiq turdagi uskunalar va butlovchi qismlar hamda qariyb ming turdagi havo, gaz va moy filtrlari "Navoiy KMK" AJ, "Olmaliq KMK" AJ, "Qizilqumsement" AJ, "Navoiyazot" AJ, "Navoiy IES" AJ va boshqa yirik sanoat korxonalariga kooperatsiya asosida yetkazib berilmoqda. Yevropa va Osiyoning 10 dan ortiq davlatlari bilan eksport, to'rtta mamlakati bilan import aloqalarini yo'lga qo'yganmiz. "Universal filter" brendiga asos soldik.

Albatta, biz davlatimiz rahbari taqdim etgan yengilliklardan olayotgan foydamizni hududimiz infratuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi sex va fabrikalar faoliyatini yo'lga qo'yishga yo'naltiramiz. Zero, Prezidentimizning biz, tadbirkorlarga ko'rsatayotgan g'amxo'rlik va rag'batini tasodif yoki muruvvat, deb emas, balki ortida mamlakat ertangi kunini belgilovchi aniq-hisob kitoblariga asoslagan loyiha, deb bilamiz.

Ibrohim FAYZIYEV,
"Navpromlitmash" MChJ
ta'sischisi,
"Do'stlik" ordeni sohibi.



ODAMLARNI HAYOTDAN BOSH MAQSAD

Ezgu niyatlarimiz ijobati o'zimizga bog'liq

Milliy o'zlik – millatparvarlikdan, o'z millatini sevish, uni hurmat qilish, tushunish, idrok etish, kelajagi uchun qayg'urishdan boshlanadi. Men ana shu haqiqatni siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning "Xalq so'zi" gazetasiida e'lon qilingan "Shavkat Mirziyoyev: men umrimni shu xalqqa tikkanman!" sarlavhali maqolasini o'qib, yanada teran angladim.

Rosti, maqoladagi har bir jumla kishini chuqur mulohazaga chorlash bilan birga, qalbda shukronalikni ham kuchaytirishi e'tiborga molik.

Bilasiz, Termiz shahri mamlakatimizning eng chekka, qo'shni davlatlar bilan chegaradosh hududi ekanini bahonasi bilan yaqin o'timishimizda ham rivojlanishdan ortda qolib keldi. Viloyat markazi maqomidagi yirik qadimiy shahar ba'zi hududlarning tuman markazichalik shart-sharoitiga, zamonaviy binolarga ega emas, odamlarning turmush-tarzi, yashash sharoitlari ham haminqadar edi. Keyingi yillarda esa Termiz tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Osmonpar binolar, zamonaviy inshootlar, keng va ravon yo'llar, obod mahallalar qad rostladi.

Mahallamiz misolida aytadigan bo'lsak, "Obod xonadon – obod ko'cha – obod mahalla" mezonlarini joriy etish orqali hududimiz infratuzilmasi yangi qiyofa kasb etdi. Yangi maktab, zamonaviy bog'cha, mahalla idorasi, tibbiyot maskani, turli ishlab chiqarish sexlari, bolalar maydonchalari, o'yingohlar qurildi. Aholi bandligi ta'minlanib, kambag'allik yot tushunchaga aylandi.

Bunday keng ko'lamli



islohotlar ayni kunlarda ham davom etayotgani barchamizni quvontirmoqda. Gap shundaki, shu vaqtga qadar ko'p qavatli uylarda yashovchilarning eng katta muammosi – issiqlik ta'minoti edi. Kuz-qish mavsumida xonadonlarimizni isitish uchun gaz pilita, elektr pech va alohida isitish manbaini o'rnatish orqali jon saqlab kelardik. Endilikda bularning barchasi xotiralarimizda qolayotir.

Aytmoqchi bo'lganimiz, mamlakatimizda yuz berayotgan yangilanishlar har birimizda shukronalik, faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otibgina qolmay, qalblarimizda ana shu yuksalishga o'z hissamizni qo'shishga intilish, el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'ularimizni yanada oshirishi darkor. Zero, yanada jipslashish, bir mushat bo'lib oldinga intilish bizni ezgu maqsadlarimiz ro'yobi sari eltadi.

Nodira RAJABOVA,
Termiz shahridagi
"Bog'i shamol" MFY faoli.

Mamlakat taraqqiyotining muhim omili

Prezidentimizning yaqinda Jizzax viloyati faollari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqi ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Unda davlatimiz rahbari shunday dedi: "Xudo menga sog'liq berib, umr bersa, bizda kambag'allik va ishsizlik bo'lmaydi. Nimaga desangiz, bunga men yetti yil umrimni tikdim. Tizim yaratdim, qonun yaratdim, dunyoni ochib berdim. Xalqim yaxshi yashasin, niyatlari amalga oshsin, bolalari baxtli bo'lsin, nevaralari sog'lom tug'ulsin, maktabi ishlasin, yo'llari ravon bo'lsin deb ishga keldim..."

Ushbu samimiyatga yo'grilgan so'zlar ko'pchilik qatori oddiy fuqaro hamda tadbirkor sifatida o'z faoliyatimning o'tgan davriga nazar solishga va sarhisob qilishga undadi.

Umuman, turizm kompaniyasining rahbari sifatida ayta olamanki, avvallari bitta turistni olib kelish uchun juda ko'plab byurokratik to'siqlardan o'tish, viza rasmiylashtiruvlarini amalga oshirishga to'g'ri kelardi. Chegara, aeroport va vokzallardagi shart-sharoitlar turistlar uchun nihoyatda noqulay, yopiq bir mamlakat edik. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining "dunyoni ochib berdim" deb aytgan so'zlari naqadar to'g'ri ekanini, xalqimiz, qolaversa, turizm sohasi vakillari bugungi kunni

tahlil qilib, sezib-bilib, anglab turibdi.

Hozirgi kunda O'zbekistonga 100 dan ortiq xorijiy mamlakatlar vizasiz sayohat qilishi mumkin. Tashrif buyurayotgan sayyohlar soni 6-7 yil oldingiga qaraganda 3-4 barobar o'sgani, qadimiy shaharlarimiz turistlar bilan gavjumligi, yangi aeroportlar, vokzallar, yangi sayyohlik markazlari va shaharlari bunyod etilgani e'tiborga molik. Qolaversa, yo'l-transport infratuzilmasi rivojlantirilayotir, xalqaro va ichki aviareyslari soni kun sayin oshib bormoqda.

Ayni chog'da turizm sohasida tadbirkorlar uchun soliq va boshqa imtiyozlarning berilishi natijasida mehmonxona, umumiy ovqatlanish obyektlarining soni va ularda



ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati rivojlangan davlatlarnikidan qolishmaydigan darajaga chiqqanini ta'kidlash lozim.

Mamlakatimizning har bir hududi ko'na tarixi, tabiati, geografik joylashuvi jihatidan ham betakror, o'lmas qadriyat va an'analarga ega. Ta'bir joiz bo'lsa, bunday o'ziga xoslik hayotimizga teran mazmun va mohiyat baxsh etadi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan birgina Samarqand shahrida haftasiga 100 dan ortiq aviareyslarni amalga oshirib kelayotgan zamonaviy ko'rinishdagi yangi xususiy aeroport va aviakompaniya, "Silk Road Samarqand" xalqaro turizm markazining tashkil etilishi natijasida sayyohlar soni keskin oshdi va turizm xizmatlari ko'rsatilishining yangi davriga chiqdik.

Tolib JAHONGIROV,
"Shahrezada Sam
Star Tour" sayyohlik va
transport korxonasi
bosh direktori.



Imkoniyatlar yangi tashabbuslarga yo'l ochmoqda

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlar oldidagi juda ko'p to'siqlar, muammolarga sabab bo'layotgan holatlar olib tashlandi. Natijada bugun tadbirkorlar sinfi jamiyatimizda haqiqiy kuchga, islohotlar drayveriga aylandi.

Bizning "Qamashi oltin boshqoq agroklastar" MChJ shaklidagi klaster korxonamizning faoliyati g'alla yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Dastlab mahsulotni qayta ishlovchi korxonalarga yetkazib bergan bo'lsak, keyinchalik yetishtirilayotgan hosilni o'zimiz qayta ishlab, olinayotgan daromad salmog'ini oshirish niyati paydo bo'ldi. Bu tashabbusimiz qo'llab-quvvatlanib, faoliyatini davom ettirish uchun hududdagi kichik sanoat zonasidan maydon ajratib berildi. Natijada bu yerda zarur ishlab chiqarish obyektlarini qurib, 11 mlrd. so'm miqdoridagi sarmoya evaziga yiliga 20 ming tonna yuqori sifatli un tayyorlash imkonini beradigan zamonaviy quvvatni ishga tushirdik. Bu bilan yana 30 dan ortiq qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi.

Endilikda esa yiliga 200 tonna non va non mahsulotlari ishlab chiqarish imkonini beradigan loyihani amalga oshirmoqdamiz. Buning natijasida korxonamizning iqtisodiy imkoniyatlari yanada kengayishi bilan bir qatorda, 15 ta yangi ish o'ri ochiladi.

Albatta, bularning bari maqolada ta'kidlangani kabi, davlatimiz tomonidan tadbirkorlarga yaratib berilayotgan keng



imkoniyatlar natijasidir. Sirasini aytganda, xalqimiz katta maqsadlar, ezgu niyatlar bilan yashash qanday marralarga, saodatga musharraf etishini yaxshi biladi. Shu bois bugungi dorilamon, farovon kunlarning qadriga yetish, yurt taraqqiyotiga daxldorlik hissi bilan yashash har birimizning fuqarolik, farzandlik burchimiz ekanini unutmamak, nur ustiga a'lo nur bo'ldi.

Bahrom ALIYEV,
"Qamashi oltin boshqoq agroklastar"
MChJ rahbari.

Dunyo tan olgan haqiqat

Adashmasam, 2007-yildan boshlab oylik ish haqimizni plastik kartaga o'tkazib bera boshlashdi. Avvaliga bank 50 foiz maoshimizni plastik kartaga o'tkazar, qolganini naqd pul ko'rinishida olardik. Ammo bu uzoqqa cho'zilmadi. Plastikda pul bor, ammo cho'ntakda xemiri yo'q kunlar boshlandi. Bora-bora deyarli har kuni bankka qatnaydigan bo'ldik. Har borganimizda ellik ming so'm, keyinchalik o'ttiz ming so'm naqd pul yechardik. Shu pulni ham navbatda turib, vaqt ketkazib olardik.



bo'lsangiz, olaqarash qilardi. Hech esimdan chiqmaydi, qurilish mollari do'konidan bir banka bo'yoqni 32 ming so'mga sotib oldim. Ertasi kuni nima ish bilandir o'sha do'konga kirsam, sotuvchi bir banka bo'yoqni naqd pulga 26 ming so'mga sotayapti. To'g'risi, alam qilib ketdi...

Hozir pensiyadaman. Nafaqam to'liq plastik kartaga tushadi. Ilgarigi zamonga o'xshab plastikdagi pulni naqdlashtirishga shoshilmaymiz. Elektr, gaz, suv, mulk, yer soliqlarini to'lash ham elektron shaklda. Har oy banklarga borib, uzundan-uzoq navbatda turib kommunal to'lovlarini amalga oshirish ham tushdek bo'lib qoldi.

Shukrki, nafaqaga chiqishim yangi davrga to'g'ri keldi. Maqolada aytilganidek, pensiya hisoblashda ish haqiga belgilangan

yuqori chegara pensiya hisoblash bazaviy miqdorining 8 barobaridan 10 barobariga, keyinroq esa 12 barobariga ko'paytirildi. Qolaversa, biz kabilar ishlab turib ham pensiyalarini to'liq olish imkoniga ega bo'ldi. Bugun mamlakatimizda hamma soha – sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish shiddat bilan rivojlanyapti. 1990-yildan to 2016-yilgacha Jizzax shahrida qurilgan yangi turarjoy binolarini barmoq bilan sanasa bo'lardi. Keyingi sakkiz yil davomida shahrimizda bunyod etilgan muhtasham binolarning sanog'i yo'q. Shaharning biror mavzesiga ikki-uch oydan so'ng yo'lingiz tushsa, tanimay ham qolasiz.

Hayot daryosining oqimi juda tez, u hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi. Bu o'zgarishlardan ortda qolish, ular bilan hamohang harakat qilmaslik esa turg'unlikka olib keladi. Bu shiddatli jarayonda, bunyodkorlik ishlari bosh bo'lib turgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosatning o'rni namo ahamiyati bebaho va beqiyosdir. Zero, bu haqiqatni dunyo ham allaqachon tan olib bo'lgan.

Abdurahmon KARIMOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, faxriy jurnalist.

O'zbekiston – BMT:

DAVLATLAR VA XALQLAR MANFAATI YO'LIDA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIKKA SODIQLIK



1

Xususan, O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi doirasida "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash to'g'risida" (2018-yil iyun), "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" (2018-yil dekabr), "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" (2019-yil dekabr), "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida" (2021-yil may), "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash bo'yicha" (2022-yil iyul), "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni

jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida" (2022-yil dekabr), "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" (2023-yil dekabr), "2027-yil – Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili" (2024-yil fevral), "Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo'lib harakatlanish va hamkorlik qilishga tayyorligi" (2024-yil iyun) va "Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni" (Xitoy bilan birgalikda, 2024-yil iyun) rezolyutsiyalari qabul qilindi.

Barqaror tinchlikning faol tarafdori

va xalqaro maydonda hamkorlikni har tomonlama kengaytirish tashabbuskori sifatida O'zbekiston BMT va uning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlikka doimo katta e'tibor qaratib keladi. BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi 1993-yilda ochildi. Ayni chog'da yurtimizda BMTning o'ndan ortiq tuzilma va institutlari, jumladan, Taraqqiyot dasturi, Aholishunoslik jamg'armasi, Bolalar jamg'armasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamda Ta'lim,

iqтisodiy rivojlanish va kambag'allikka qarshi kurash, inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish, zamonaviy chaqiriq va tahdidlarga qarshi kurashish, Afg'onistonni barqarorlashtirish va qayta tiklash, qurol-yarog'larni tarqatmaslik, ekologik muammolarni hal etish, xususan, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish, turizmni rivojlantirish va boshqalar bo'lib qolmoqda.

Ayni paytda BMT va uning tuzilmalari bilan hamkorlik doirasida 135 ga yaqin

“Ta'kidlash kerakki, so'nggi paytlarda O'zbekiston BMT faoliyatida faol qatnashmoqda. Xususan, joriy yilning o'zida nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo uchun birinchi marta mamlakatimiz vakili BMTning muhim va nufuzli organi – Inson huquqlari qo'mitasiga 2025 – 2028-yillar uchun saylandi. Shuningdek, O'zbekiston 2025 – 2027-yillarga mo'ljallangan BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi hamda Xalqaro mehnat tashkilotining Ma'muriy kengashi a'zosi bo'ldi.

fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi, "BMT-ayollar" tuzilmasi, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Ko'p tomonlama hamkorlikning asosiy ustuvor yo'nalishlari ijtimoiy-

qo'shma dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda. BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun maxsus Trast fondi faoliyat yuritmoqda. Yirik xalqaro tadbirlar, xususan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, turizmni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va global kun tartibidagi boshqa dolzarb mavzular

bo'yicha anjumanlar hamkorlikda o'tkazilmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz BMTning Afg'onistonni mojarodan keyingi tiklanish dasturlarini amalga oshirishga samarali hissa qo'shmoqda. Xususan, O'zbekiston – Afg'oniston chegarasida xalqaro gumanitar yuklarni yetkazib berish uchun ko'prik ochildi. Afg'on zaminida ko'plab infratuzilma obyektlari qurilmoqda, shuningdek, Afg'oniston bo'yicha xalqaro konferensiyalar ikki marta (2018- va 2022-yillar) Toshkentda tashkil etildi.

O'zbekiston BMT bilan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha hamkorlikka ustuvor ahamiyat qaratadi. Bu borada davlatimiz rahbari jahon hamjamiyatini ushbu ekologik tahdidning Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan millionlab odamlarning turmush tarziga halokatli ta'sirini kamaytirishga, Orol dengizidagi tabiiy va biologik muvozanatni saqlashga o'z sa'y-harakatlarini qaratishga da'vat etmoqda.

Ta'kidlash joizki, qadimiy va betakror Samarqand keyingi yillarda qator dolzarb masalalar bo'yicha global muloqot forum bo'lib o'tdi. Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi, BMTning cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi ijrosini ko'rib chiqish qo'mitasining 21-sessiyasi va BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi tomonlar konferensiyasining 14-yig'ilishi tashkil etildi. Bundan tashqari, 2025-yilda Samarqand 1985-yildan beri birinchi marta UNESCO Bosh konferensiyasini

o'z qarorgohi tashqarisida o'tkazadigan shaharga aylanadi. Xalqaro ekspertlarning fikricha, ushbu tadbir tashkilot tarixida sivilizatsiyalar va madaniyatlار o'rtasidagi rang-baranglik va muloqotning o'ziga xos ramzi bo'ladi.

O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan o'zaro hamkorligining barcha jihati va muvaffaqiyatli natijalarini bir maqolada jamlash qiyin. Aytish joizki, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalar BMTning Ming yillik sammitida qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohangdir. O'zbekistonda o'z maqsadlariga birgalikda erishishga sodiqliq yurtimizning davlatlar va xalqlar farovonligi yo'lida ko'p tomonlama hamkorlikda faol ishtirok etayotgani bilan tasdiqlanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 2021-yilgi sessiyasida so'zlagan nutqida jahon hamjamiyatining e'tiborini hozirgi murakkab sharoitda BMT va uning ixtisoslashtirilgan muassasalarining roli va ahamiyati ortib borayotganiga qaratdi. "Jahon taqdiri bilan bog'liq ushbu muhim jarayonlarda aynan Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining yetakchilik rolini yangi mazmun va sifat bilan davom ettirishi zarur", dedi davlatimiz rahbari.

Shu nuqtayi nazardan, Bosh kotib Antoniu Guterrishning O'zbekistonga tashrifi va Toshkentdagi muzokaralari mamlakatimiz bilan BMT hamda uning ixtisoslashtirilgan institutlari o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish, aloqalarni yangi g'oyalار bilan to'ldirish yo'lidagi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

“Dunyo” AA.

YUKSAK ISHONCH KATTA MAS'ULIYAT DEMAK

Kuni kecha davlatimiz rahbari 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan mamlakatimizda o'zining iste'dodi, mehnati hamda harakatlari bilan yurtimiz va jamiyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa

Dil so'zi

qo'shayotgan, har jabhada faol, tashabbuskor, tengdoshlariga o'rnak

Suhrobjon JO'RAYEV,

Shahrisabz davlat pedagogika institutining Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi, "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohibi:

– Yurtimizda kelajak egalari e'zozlanib, qiziqish va talablarini o'rgangan holda barcha zarur shart-sharoit yaratib berilmoqda.

Ochig'i, taqdirlanganim haqidagi xabarni eshitib xonadonimizda bayram boshlanib ketdi, hammaning ko'zida quvonch, yuragida orziqish, yaqinlarim ko'zidagi yoshni ko'rib ularning ishonchini

oqlay olganimdan sevindim. Kuni kecha Prezidentimizning qo'ldan ushbu yuksak mukofotni qabul qilib oldik. Bu esa o'zimga bo'lgan ishonchni o'n hissa oshirdi, mas'uliyatni esa yuz baravar. Bu mukofotni kamtarona mehnatimga berilgan yuksak baho, yuqori ishonch namunasi deb bilaman va bundan keyin ham harakatdan to'xtamayman.

Mo'tabar XUSHVAQTOVA,

Ijtimoiy tarmoqlardagi "Urikguli" ekologik blogi asoschisi, "Kelajak bunyodkori" medali sohibasi:

– Mamlakatimizdagi har bir yoshda, ta'bir joiz bo'lsa, "Everest"ni zabt etishga qodir kuch-qudrat bor. Faqat uni to'g'ri yo'lga, haqiqatda o'sha baland cho'qqini egallash uchun sarflashga yo'naltirilsa, bas. Shukrki, bugun kuchimiz faqat va faqat yaxshi, egzu hamda xayrli ishlar uchun sarflanmoqda.

Yurtimiz ertasiyning bunyodkori sifatida mukofotlanishimni, to'g'risini

aytsam, umuman kutmagandim. Shuningdek, mukofotni Yurtboshimizning o'zi bizga shaxsan topshirishi haqidagi xabarni eshitib, quvonchim qo'shaloq bo'ldi, dilimda faxrlanish hissi jo'sh urdi.

Tabiatni juda yaxshi ko'raman, ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarim ham aynan uni asrab-avaylash va bizdan keyingi avlodlarga sof, pokiza, gard yetmagan holda yetkazishga qaratilgan. Ko'ksimga

bo'layotgan bir guruh yoshlarni "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medallari bilan taqdirлади.

Ushbu yuksak e'tibor va e'tirof yosh avlod vakillarini ruhlantirishga, zimmasidagi mas'uliyatni oshirib, yangi marralar sari ildam qadam tashlashda turtki bo'lishiga ishonchimiz komil.



Ayni paytda yoshlarga IT sohasini o'rganishda yaqindan ko'mak beruvchi "Bir million dasturchi" loyihasida

faoliyat yuritmoqdaman. Ushbu yo'nalishga qiziqish bildirayotgan tengdoshlarimiz safi tobora oshib bormoqda, bu albatta, biz mas'ullarni o'ziga talabchan, ishiga yanada mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

Kelajakda o'z sohamning yanada yetuk mutaxassisi o'laroq kamol topish, shu barobarda jonajon Vatanimiz bayrog'i hamda shon-shuhratini yanada balandlarga ko'tarishni niyat qilganman.

taqilgan bu medalni nafaqat o'zim, balki tabiatni sevadigan, asrashga bel bog'lagan barcha insonga berilgan katta rag'bat deb bilaman.

Bir narsani qayd etishni istardim, O'zbekiston bugun zamonaviy, osmono'par binolar barpo etilayotgan mamlakatga aylanmoqda. Har qanday qurilishda changu g'ubor ko'tarilishi va bu bevosita ekologiyaga ta'sir qilishi tabiiy holat. Ammo shunday ekan deb chetdan qarab turish yaramaydi, har birimiz hech bo'lmaganda bir



dona bo'lsa-da nihol o'tqazsak, u kun kelib azim daraxtga aylanadi va bizdan keyin ham sof ekologik muhiti asrashda davom etadi.



navqiron avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida bizga qaratga shunday deya ta'kidladi: "Har biringiz hayotda munosib o'rningizni topishingiz

uchun, biz bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to'liq ishga solamiz".

Bu so'zlar hali-hamon quloqlarim ostida kelajak sari katta umid va maqsadlar bilan qadam tashlashga undaydigan da'vat o'laroq yangrab turibdi. Biz, yoshlar ham, albatta, berilayotgan imkoniyatlardan to'liq foydalanib, yaqinlarimiz, xalqimiz va yurtimiz ishonchini oqlaymiz.

Elyor HAYDAROV ("Xalq so'zi").

SHIJOAT, INTILISH VA ORZULAR RO'YOBI

MAMLAKATIMIZDA KENG NISHONLANGAN YOSHLAR KUNI ANA SHUNDAY IFODALARNI O'ZIDA MUJASSAM ETDI

1

Darhaqiqat, 2024-yil navqiron avlod uchun chinakam esda qolarli voqeeliklarga boy bo'ldi. Prezidentimiz tomonidan joriy yilning "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi va ayni yo'nalishda alohida davlat dasturi qabul qilinishi yigit-qizlar orzularini ro'yobga chiqarishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarga yo'l ochdi.

Kelajagimiz egalari tomonidan so'nggi paytlarda erishilayotgan natijalar ko'plab odamlarning havasini keltirayotgani bor gap. Jumladan, o'tgan o'quv yilida mamlakatimiz bilim maskanlarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilardan 55 nafari matematika, kimyo, biologiya, fizika va informatika fanlari bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiadalarda 8 ta oltin, 15 ta kumush, 32 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek, madaniyat va san'at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda iste'dodli va mehnatkash yoshlarning 383 nafari bosh sovrinni, 1 ming 359 nafari esa faxrlı 1-o'ringa ega bo'lgani kishiga faxr bag'ishlaydi.

Qayd etish joizki, yoshlarimiz har soha, har yo'nalishda ilg'or, o'zini, iqtidorini ko'rsatishga qodir. Yaqinda Qatarda bo'lib o'tgan futbol bo'yicha Osiyo kubogi o'yinlarida O'zbekiston olimpiya terma jamoasi mamlakatimiz



tarixida ilk bor Olimpiada yo'llanmasiga ega bo'lgani ham yurtimizda yoshlar siyosati naqadar samarali olib borilayotganining yaqqol tasdig'idir.

Eng asosiysi, harakatdan to'xtamagan, mehnatdan qochmagan, orzulari yo'lida bir qadam ham ortga chekinmaydigan navqiron avlod vakili borki, uning izlanish va intilishlariga munosib baho berilib, qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Joriy yil bayram arafasida ham Prezidentimizning alohida Farmoni hamda qarori bilan o'z sohasida faol mehnat qilayotgan bir guruh iste'dodli yoshlar "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi. Davlatimiz rahbarining o'zi yoshlarga ushbu mukofotlarni topshirgani ham yuksak ishonch ifodasi o'laroq ularni kelajakda yangi marralar sari ruhlantirishiga shubha yo'q.

Joriy yil Yoshlar oyligi doirasida tadbirlar, uchrashuv va muloqotlar, konsert dasturlari barcha hududda ko'tarinki ruhda tashkil etildi. Xususan, 4 ta viloyat va poytaxtimizda ilk bor minglab mamlakatimiz hamda xorijlik yoshlarni bag'riga jamlagan Butunjahon yoshlar festivali o'tkazilgani ham tarixiy voqeeli sifatida xotira va ko'ngillarga muhrlandi. Ushbu anjuman va qatnashish uchun dunyoning 92 ta mamlakatidan faol chet ellik yoshlar, 20 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar, Butunjahon yoshlar vazirlık va idoralaridan rahbar hamda mas'ul xodimlar tashrif buyurgani yurtimiz yoshlarining jahon bo'ylab do'stu hamkorlari safi ortishiga, shuningdek, bilim va kasb o'rganish, global muloqot hamda almashuvlarida ishtirok etishiga yo'l ochdi, desak, yanglishmaymiz.

– Yurtimiz yoshlari haqiqatda baxtiyor, bu mana shunday bayram kunlarida yanada yaqqol seziladi, – deydi "Kelajak bunyodkori" medali sohibi, Qoraqalpog' davlat universitetining 2-bosqich talabasi Gulayim Kuanishbayeva. – Bizning istagimiz, orzu-maqsdadimiz bilan qiziqadigan odamlarning borligi qalbibizga shijoat baxsh etadi, albatta. Yurtboshimizning tabrigi yuraklarimizni to'qintirib yubordi, shunday Vatanda tug'ilganimizga, yayrab-yashnab yashayotganimizga shukrona qildik.

Bayram dasturi konsertga ulandi, turli xonanda va yoshlar jamoalarining musiqiy chiqishlari ishtirokchilar qalbiga shukh bag'ishlab, davraga o'zgacha fayz kiritdi.

Rahmatjon BOBOJONOV ("Xalq so'zi").

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrigi qilinmaydi va mullifiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih Sh. Mashraboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.05 Topshirildi — 00.25

1 2 3 4 5 6